



OSCE

THE ACADEMY OF THE ARMED FORCES
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

ORGANIZATION FOR SECURITY AND
CO-OPERATION IN EUROPE



COLLECTION
**of the VI International Scientific
Theoretical Conference materials**

GLOBAL GEOPOLITICAL AND GEO-ECONOMIC TRANSFORMATIONS
AND THEIR IMPACT ON REGIONAL SECURITY AND PREVENTING CONFLICTS

GEOSIYOSIY VA GEOIQTISODIY O'ZGARISHLAR VA ULARNING MINTAQAVIY
XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH VA NIZOLARNING OLDINI OLISHGA TA'SIRI

ГЛОБАЛЬНЫЕ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ И ГЕОЭКОНОМИЧЕСКИЕ
ТРАНСФОРМАЦИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ РЕГИОНАЛЬНОЙ
БЕЗОПАСНОСТИ И ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ КОНФЛИКТОВ



Tashkent
November 14, 2024



UO'K 327.5:341.32(063)

KBK 66.4(0)

G 54

Global geosiyosiy va geoijtisodiy o'zgarishlar va ularning mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash va nizolarning oldini olishga ta'siri. VI xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari to'plami, 2024-yil 14-noyabr / [O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi boshligi, polkovnik B. Shayakubovning umumiy tahriri ostida] – Toshkent: O'R QK Akademiyasi, 2024. – 311 b.

Konferensiyaning asosiy maqsadlari – xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy yondashuvlarni muhokama qilish uchun keng ilmiy platforma yaratish, harbiy to'qnashuvlarning kelib chiqishi nuqtayi nazaridan, kelajakda ularning rivojlanish dinamikasi va transformatsiyasi, to'qnashuvlarning oldini olish va tartibga solishda amaliy choralarini belgilash; harbiy ilm-fan va ta'lif doirasida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasining chet el ilmiy markazlari va oliy ta'lif muassasalari bilan hamkorligini mustahkamlashdan iborat.

Tadbirda BMTning 200 dan ziyod ekspertlari, YEXHT, NATO, MDH, SHHT, MATM, XQX, Djordj Marshal nomidagi Yevropa xavfsizlik savollarini o'rganish markazi, AQSH Milliy mudofaa universiteti qoshidagi Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo strategik tadqiqotlar tahlil markazi, Ozarbayjon Respublikasi, Belarus Respublikasi, Buyuk Britaniya, Germaniya, Hindiston, Italiya, Qozog'iston Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Koreya Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Tojikiston Respublikasi va Turkiya oliy harbiy ta'lif muassasalari vakillari hamda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif va tadqiqot muassasalari ekspert-vakillari qatnashdi.

Konferensiyada geosiyosiy va geoijtisodiy o'zgarishlarning mintaqaviy xavfsizlik va nizolarning oldini olishga ta'siri, xavfsizlik sohasida yangicha tahdidlarga qarshi kurash kontekstida siyosiy-diplomatik va mintaqalararo yondashuvlar, mintaqaviy harbiy nizolarning oldini olishda Qurolli Kuchlar rolining tahlili, xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashishning jihatlari, sun'iy intellekt va neyrotarmoqlarning rivojlanishi global sharoitda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashning o'ziga xos jihatlari yuzasidan fikrlar almashilib, muhokamalar qilingan.

Tezis va maqolalarda keltirilgan iqtiboslar, ismlar, sarlavhalar va boshqa ma'lumotlarning to'g'riligi va aniqligi, shuningdek, nashr etilgan materiallar uchun intellektual mulk to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishiga mualliflar javobgardir.

UO'K 327.5:341.32(063)

KBK 66.4(0)

Tahrir hay'ati a'zolari: Qodirov A.R., h.f.d. (DSc), dotsent, polkovnik; Ergashev A.A., h.f.f.d. (PhD), polkovnik; Ortiqov A.K., dotsent, polkovnik; Djafarov T.G., h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik; Gilyajdinov R.T., h.f.f.d. (PhD), podpolkovnik; Anarbayev O.I., h.f.f.d. (PhD), dotsent, podpolkovnik; Raxmatbayev R.J., h.f.f.d. (PhD), k.i.x., podpolkovnik; Umurzakov U.A., bo'lim boshlig'i, podpolkovnik; Boltaboyev N.A., bo'lim katta ofitseri, podpolkovnik; Xalmirzaev I.V., dotsent, podpolkovnik; Madumarova M.X., dotsent, katta ilmiy xodim; Murodillaryeva M.U., katta ilmiy xodim.

Mas'ul muharrir: Abubakirov I.I., katta ilmiy xodim.

© O'zbekiston Respublikasi
Qurolli Kuchlari Akademiyasi, 2024



MUNDARIJA / CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЕ

WELCOMING REMARKS.....8

OPENING REMARKS.....13

PLENARY SESSION WORKSHOP.....38

УМАРОВ Х.Ф. Новые аспекты обеспечения региональной безопасности в Центральной Азии.....39

АСЛАНОВ М.Ф. Регионализм и стабильность: обеспечение безопасности Центральной Азии в условиях глобальных изменений.....44

ЯКУБОВА А. Роль ОБСЕ в противодействии трансграничным угрозам, исходящим из Афганистана и за его пределами46

TOLIPOV F.F. Divisibility and Indivisibility of Security: Challenges for Central Asia.....58

МОИСЕЕНКО В.Г. Обеспечение стабильного состояния и развития системы пограничной безопасности на внешних границах государств-участников СНГ на Центральноазиатском направлении.....60

KHUJANOV B. New Uzbekistan's Foreign Policy in Conditions World Order Transformation64

SESSION #1.....70

KHAKIMOV F. Issues of Foreign Policy and Regional Cooperation in the Strategy "Uzbekistan-2030"71

МУСТАБЕКОВ А.Д. Глобальные геополитические и геоэкономические трансформации и их влияние на обеспечение безопасности в Центрально-Азиатском регионе.....76

UBAYDULLAEVA S.F. Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashda o'zaro bog'liqlik masalalari82

ЭРГАШЕВ Б.И. Санкционная война и страны Центральной Азии: экономический pragmatism и geopolitika87

ELERTE E. NATO - 75 Years on: Reinforcing Global Security and Regional Stability ..91

SHARIFZODA S.S. The Role of the Dushanbe Process in Preventing the Threats to Regional and International Security96

G'OZIYEV R.R. Global geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida Markaziy Osiyo davlatlarining mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash muammolari101

ЮЛДАШЕВА Г.И. Новые геополитические тенденции: вызовы безопасности для стран Центральной Азии104

YULDASHEV A.E. Markaziy Osiyo bo'yicha Xitoy tashqi siyosatining mintaqaviy xavfsizlikka ta'siri.....111

SESSION #2.....116

ЖИЛИНСКИЙ С.В. Угрозы национальной безопасности Республики Беларусь в пограничном пространстве117

ТУРСУНБОЕВ Н.Т. Роль пограничных войск в обеспечении пограничной безопасности Республики Узбекистан125



ABDUGANIYEV B.Yo. Iqtisodiy xavfsizlik: tahdid va oqibatlar	130
АЛИЕВ Н.А. На рубеже XX в. начале XXI вв. влияние глобальных геополитических процессов в Кавказско-Каспийском регионе и роль Азербайджана по обеспечению безопасности на Южном Кавказе	135
BOLTAEV K. Contemporary Developments in Afghanistan: challenges and Opportunities for Central Asia	148
JOSKIT V. European Integrated Border Management (EIBM) Concept.....	151
КОСТЮЧЕНКО А.В. Повышение инновационного развития стран Центральной Азии и СНГ с целью укрепления национальной безопасности региона	154
БЕКПУЛАТОВ Х.Б., АБДУЛЛАЕВ Г.М. Охрана и обеспечение безопасности государственной границы в современных условиях	159
MUXAMMADOV B.O. Harbiy sohada sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash istiqbollari: afzallik va kamchiliklar	164

KONFERENSIYA MAVZUSI DOIRASIDA KELIB TUSHGAN TEZISLAR

ХОНСАИДОВ М.М., АХМАДЖНОВ Б.А. Обеспечение военной безопасности государства в контексте перспектив применения робототехнических комплексов военного назначения в будущих военных конфликтах.....	169
BOYXONOV Sh.M. Ijro hokimiyati ustidan parlament nazorati (deputatlik so'rovi) samaradorligini oshirish masalalariga oid.....	173
QODIROV A.R. Markaziy Osiyoda geosiyosiy kuchlar muvozanati va mintaqaviy xavfsizlikka asosiy tahdidlar.....	177
XOLIQOVA D.A. Markaziy Osiyo geosiyosiy maydonida O'zbekistonning o'rni.....	181
УМАРОВ М.М. Характер взаимосвязи войны, политики и экономики в современных условиях	184
UMURZAKOV U.A. Mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashda millatlararo munosabatlarni mustahkamlovchi mafkuraviy qarashlar.....	190
ЕСБОТАЕВ А.Б. Гибридная война: новые вызовы угрозы безопасности и стабильности в Центрально-Азиатском регионе.....	192
MAMADJONOV A.B. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi yumshoq kuchida "Turkiy dunyo" strategiyasi: imkoniyatlar va muammolar	196
NOMURATOVA M.K. Globallashuv jarayonida mafkuraviy xurujlar va ma'naviy tahdidlar	202
MAMASAIDOV U.E. Markaziy Osiyo mintaqasidagi harbiy-siyosiy vaziyatning o'ziga xosligi	205
NAJIMOV M.M., MUZAFFAROV Z.Q. O'zbekiston Respublikasining mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tashabbuslari.....	209
САЛИХОВ Э.Т. Совещательные органы по вопросам национальной безопасности в государствах Центральной Азии.....	215
SAFAROV Yu.B., KADIROV I.O. Globallashuv davrida zamonaviy harbiy mojarolarning oldini olish nazariyasi va amaliyoti	221
ORTIKOV A.K., OTABAYEV A.K. Global va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorligi.....	225



ANARBAYEV O.I. Tinchlik va barqarorlikni ta'minlashda axborot va siyosiy-psixologik jihatlarning o'ziga xosligi.....	230
GAFUROV A.V. Harbiy xavfsizlikni ta'minlashda paradigmaviy yondashuv.....	235
RAJABOV M.J., ABUBAKIROV I.I. Davlat xavfsizligining siyosiy-huquqiy mohiyati	237
БОБОКУЛОВ И.И. К основным вызовам региональной безопасности и перспективам сотрудничества государств Центральной Азии в этой области	242
КАМИЛОВ А.Б. Значение территориальной обороны в обеспечении национальной безопасности государства	246
YO'LBARSHO'JAEV U.Sh. Farg'ona vodiysining geosiyosiy qiyofasi va uning o'ziga xosligi	249
ТОКАРЕВ В.К. Массовая миграция в европейском регионе как угроза пограничной безопасности	254
ARABOV B.I. Korrupsianing mintaqaviy xavfsizlikka tahdidi: ilmiy-nazariy yondashuvlar.....	259
BOBOMURODOV D.A. Geosiyosiy va geoijtisodiy tendensiyalarni har tomonlama tahlil qilish: ularning mintaqaviy va global xavfsizlikka ta'sirini baholash.....	263
ЖУМАНИЯЗОВА Ш.К. Влияние искусственного интеллекта на стратегию национальной безопасности	266
PAXMATBAEV Р.Ж., НЕГРИЕНКО А.Я. К вопросу информатизации различных сфер человеческой деятельности и обеспечения информационной безопасности..	273
NOSIROV N.B., SAMIYEV L.N. Global geosiyosiy va geoijtisodiy o'zgarishlar, ekologiya va mintaqaviy xavfsizlik o'rtasidagi aloqalar.....	276
MARDIYEV J.Sh. Harbiy xavf va harbiy tahdidlarda xavfsizlik.....	280
AZAMOV J.X. Iqlim o'zgarishi davlatlar xavfsizligi va iqtisodiyotiga ta'siri	284
ХАЛМИРЗАЕВ И.В. Пограничная политика в системе безопасности государства	287
SABIROV G.G. Chegara hamkorligi: asosiy jihatlari va tamoyillari.....	290
MAMATKULOV K.Ch. Mintaqaviy tinchlikni ta'minlashda geosiyosiy va geoijtisodiy o'zgarishlarning ahamiyati	293
TLEUBAEV I.Sh. Afg'onistondagi vaziyatga nisbatan O'zbekiston Respublikasining tutgan pozitsiyasi: yangicha yondashuv hamda munosabatlarning shakllanishi va rivojlanishi	296
SHAKIROV M.A. Terrorizmning mintaqaviy xavfsizlikka siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ta'siri.....	302
EGAMOV E.E., VALIYEVA M.S. Globallashuv jarayonida psixologik ishlarning ahamiyati	305
CLOSING REMARKS.....	309
Contact information	311





**VI INTERNATIONAL
SCIENTIFIC -THEORETICAL
CONFERENCE**

TOPIC

**GLOBAL GEOPOLITICAL AND GEO-ECONOMIC TRANSFORMATIONS AND
THEIR IMPACT ON REGIONAL SECURITY
AND PREVENTING CONFLICTS**

DATE

14 November, 2024

PLACE

**Tashkent City,
Republic of Uzbekistan**

ORGANIZATION

**Academy of the Armed Forces of the
Republic of Uzbekistan under the auspices
of the Organization for Security and Co-
operation in Europe (OSCE)**

LANGUAGES

English, Uzbek, Russian





**PROBLEMS OF REGIONAL SECURITY OF CENTRAL ASIAN STATES
IN THE CONTEXT OF GLOBAL GEOPOLITICAL CHANGES**

**GLOBAL GEOSIYOSIY O'ZGARISHLAR SHAROITIDA MARKAZIY OSIYO
DAVLATLARINING MINTAQAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH MUAMMOLARI**

**ПРОБЛЕМЫ РЕГИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ГОСУДАРСТВ ЦЕНТРАЛЬНОЙ
АЗИИ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНЫХ ГЕОПОЛИТИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ**

Ravshan GAZIEV

Tashkent State University of Oriental Studies, Doctor of Philosophy (PhD), Associate Professor.

G'oziyev Ravshan Rustamovich

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Газиев Равшан Рустамович

Ташкентский государственный университет
востоковедения, доктор философии политических наук
(PhD), доцент



Markaziy Osiyoning Yevroosiyo markazida joylashgan strategik joylashuvi unga ulkan geosiyosiy ahamiyatga ega. Bu Kaspiy dengizidan energiya resurslarini jahon bozorlariga olib chiqish uchun muhim tranzit yo'li, Sharq va G'arbni bog'lovchi muhim savdo yo'lagi hamda yirik davlatlar o'rtasidagi strategik bufer zona bo'lib xizmat qiladi¹. Mintaqadagi neft, gaz va foydali qazilmalarning katta zahiralari jahon energetika bozorlarini ta'minlab, uni energiya xavfsizligi, iqtisodiy rivojlanish va geosiyosiy manyovrlar uchun markazga aylantiradi. Markaziy Osiyoning joylashuvi tarix davomida ham imkoniyat, ham qiyinchilik manbai bo'lib kelgan. Mintaqaning qadimiy sivilizatsiyalarni bog'lovchi va madaniy almashinuvga yordam beruvchi savdo yo'llari chorrahasi sifatidagi tarixiy ahamiyati ham uni siyosiy va harbiy ta'sir markaziga aylantirgan. Xitoydan Yevropaga cho'zilgan savdo yo'llari tarmog'i bo'l mish Ipak yo'li asrlar davomida Markaziy Osiyodan o'tib, madaniy almashinuv va iqtisodiy farovonlik merosini qoldirdi. Bu tarixiy ahamiyat mintaqaning doimiy madaniy xilma-xilligiga, uning madaniy ko'lamenti boyitgan etnik elatlari, tillar va urf-odatlarga hissa qo'shdi. Biroq bu strategik joylashuv Markaziy Osiyoni tashqi ta'sir va mojarolarga ham zaif qilib qo'ygan. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlari geosiyosiy o'zgarishlar sharoitida o'z xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash uchun hamkorlik munosabatlarini kengaytirish sa'y-harakatlarini olib borishga to'g'ri kelmoqda.

Global geosiyosiy jarayonlar Ukraina-Rossiya va Yaqin Sharqdagi so'ngi Isroil-Falastin mojarosi, Afg'onistoniga Talibon hokimiyatining kelishi, Uzoq Sharqdagi Tayvan inqirozining keskinlashuvi bilan salbiy tusga kirganligi, xalqaro xavfsizlik tizimida muvozanat (balans) yo'qolib borayotganligi, Ikkinchchi Jahon urushidan keyin o'rnatilgan global xavfsizlik arxitekturasining izdan chiqishiga olib kelayotganligi kuzatilmoqda.

¹ Bayarkhuu D. Geopolitics of The New Central Asia. World Affairs: The Journal of International Issues, 8(1), 2004, pp. 53-76.

Ukraina-Rossiya mojarosi Ikkinchiji jahon urushidan keyin Yevropadagi eng katta va qonli mojaro sifatida baholanayotgan bo'lib, ushbu mojaro Markaziy Osiyo davlatlari uchun ham har jihatdan jiddiy muammoga aylandi. Siyosiy-iqtisodiy va xavfsizlik sohasida Rossiya bilan yaqinligi va bo'liqligi tufayli Markaziy Osiyo davlatlari G'arb davlatlari tomonidan Rossiyaga qilinayotgan sanksiyalar ta'siriga tushub qolayotganligi bilan birga, Rossiyaning ham Markaziy Osiyo davlatlariga bosimi kuchayib borayotganligini kuzatishimiz mumkin². Bu holatda mintaqqa davlatlari uchun alternativ xavfsizlik tizimini yaratish ayniqsa, mintaqaviy xavfsizlik masalasini qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda.

Yaqin Sharqdagi bugungi vaziyat, Falastin-Isroil mojarosi fonida ayniqsa, Eron va Isroilning bir-biriga jiddiy xavf solishi ushbu mintaqadagi busiz ham izdan chiqib borayotgan xavfsizlik tizimini barbod bo'lishi va konflikt eskalatsiyasini mintaqaning tashqarisigacha kuchayishi kutilmoqda. Musulmon mamlakatlar sifatida bu mojaro Markaziy Osiyo davlatlari uchun tashvishga aylanib borayotganligi, mintaqqa aholisi, ayniqsa, yoshlar orasida mojaroga diniy tus berish orqali dahldorlik his-tuyg'usini ortishi mintaqqa davlatlari hukumatlarini bu masalada ehtiyyotkorlik choralarini kuchaytirishga undamoqda.

Afg'onistonda Tolibon harakatining hokimiyati o'rnatilganidan keyin Pokiston va Eron bilan qisqa muddatli qurolli to'qnashuvlarning yuz berishi, suv masalasida qo'shni davlatlari bilan murosasiz harakat qilishi, hali hamon Afg'onistonda turli terrorchi tashkilotlar ayniqsa, ISHIDning Xuroson bo'limining faol harakatda ekanligi Markaziy Osiyo davlatlarini o'ylantirayotgan jiddiy muammolardan biriga aylantirmoqda³. Garchi Markaziy Osiyo davlatlari Tolibon rahbariyati bilan murosa va muzokara yo'lini tutayotgan bo'lsa-da, unga nisbatan shuhbali qarash, "ishon, ammo tekshir" qabilida ish tutishga sabab bo'lmoqda. Tolibon hokimiyatining xalqaro hamjamiyat tomonidan hali tan olinmayotganligi ham mintaqqa davlatlarining Tolibon bilan diplomatik munosabatlari o'rnatish va u bilan savdo aloqalarini kengaytirishda muammolarga duch kelmoqda.

Ukraina, Yaqin Sharq va Afg'oniston Markaziy Osiyo davlatlari uchun tutash, bog'liq va yaqin bo'lganligi uchun mintaqqa davlatlarining xavfsizlik borasidagi tashvishlarini tabiiy shaklda orttirayotganligi va mintaqaviy xavfsizlik tizimini ta'minlashda mintaqqa davlatlarining hamkorligi muhim zaruratga aylanayotganligini ta'kidlash joiz.

Buni anglab yetgan holda, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari O'zbekiston Prezidenti Sh.Mirziyoyev tashhabbusi bilan maslahat uchrashuvlarini tashkil etishi mavjud muammo va masalalarga o'z vaqtida yechim topish va birgalikda hamkorlik qilish imkoniyatlarini paydo qilmoqda. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarida doim mintaqada birdamlik, o'zaro ishonch, barqaror rivojlanish va mintaqaviy xavfsizlik masalalarini tez-tez tilga oladi. Darhaqiqat, bu juda muhim bo'lib mintaqqa davlatlari iqtisodiy-ijtimoiy, harbiy-siyosiy o'zaro bog'langan va mustaqil ravishda harakat qilishlari juda qiyin. Shuning ta'kidlash kerakki, o'tgan davr davomida Markaziy Osiyo davlatlari ko'plab mintaqaviy xavfsizlik muammolari bo'lishiga qaramay, o'zaro muloqot va hamkorlikni to'xtatmadı. Ularning yutug'i ham shunda bo'ldi. Mintaqqa davlatlari tarixiy va madaniy yaqinligi ko'plab masala va muammolarda bosiqlik bilan ish tutishni ta'minladi. Mintaqada hududiy va etnik mojarolar goh gohida qo'zg'alib tursa-da,

² Otobek Akromov, Central Asia: The Last Stronghold of a Declining Russia? Aug 19, 2024. <https://www.e-ir.info/2024/08/19/central-asia-the-last-stronghold-of-a-declining-russia/>

³ Sukhrob Boronov. INTERNAL AND EXTERNAL FACTORS OF TALIBAN ORIGIN. Journal of Social Research in Uzbekistan, 2(02), 2022, pp.15-23.



mintaqa aholisi va siyosiy rahbarlar bu masalada vazminlik bilan munosabatda bo'lishga harakat qilmoqda.

Yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, xorijiy adabiyotlarda keng yoyilgan qarash Markaziy Osiyo mintaqasining, ayniqsa, Farg'on'a vodiysining "portlovchi" xususiyatlari, mintaqada turli nizolarning paydo bo'lishi Zb.Bzejinskiy ta'biri bilan aytganda, mintaqaga "Yevroosiyo bolqonlari" ekanligi to'g'risidagi qarashlar⁴ har doim ham to'g'ri bo'lib chiqmadi. Aksincha, mintaqaga davlatlari progressiv ko'rinishda rivojlanishda davom etmoqda. Afg'oniston kabi notinch davlatga qo'shni bo'lsa-da, Markaziy Osiyo mintaqasi nafaqat mintaqaviy, balki inson xavfsizligi nuqtayi nazardan ham ancha barqaror va tinch mintaqaga hisoblanadi. Buning zamirida albatta katta mehnat va harakatlar yotibdi. Markaziy Osiyo davlatlari mintaqadagi muammolarni va tahdidlarni yaxshi anglab yetmoqda. Bugungi keskin geosiyosiy o'zgarishlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'layotganligi ham ularning milliy va mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlash masalasini birinchi darajali vazifa sifatida ko'rayotganligini aks ettiradi.

Shuni ta'kidlash lozimki, Markaziy Osiyo mintaqasida tashqi aktorlarning turli darajadagi ta'siri va o'ziga xos o'yin qoidalari shakllanmoqda. Buni "Markaziy Osiyo +" muloqot formatlarida ko'rishimiz mumkin. Dastlab bunday muloqot platformasini "Yaponiya+Markaziy Osiyo muloqot formati" sifatida paydo bo'ldi. Bugungi kunda bunday formatlar "Yevropa Ittifoqi + Markaziy Osiyo", "AQSH + Markaziy Osiyo" (C5+1), "Hindiston + Markaziy Osiyo", "Fors ko'rfazi Arab davlatlar Kengashi + Markaziy Osiyo" shaklida kengayib bormoqda va 9 taga yetganini ta'kidlash lozim. Bu tashqi kuchlarning mintaqaga nisbatan yagona siyosiy subyekt sifatida qaray boshlaganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari, mintaqada Turkiya Turkiy davlatlar tashkiloti va Turksoy kabi tashkilotlar doirasida hamkorlik munosabatlarini kuchaytirayotgan bo'lsa, Eron tarixiy va madaniy hamda jo'g'rofiy yaqinliklaridan kelib chiqadigan o'ziga xos tashqi siyosiy faoliyatlarini olib bormoqda.

Xulosa. Markaziy Osiyo davlatlari dunyoning katta kuch markazlari Rossiya, Xitoy, Hindiston va mintaqaviy kuch markazlari Pokiston, Eron bilan o'ralgan. Shimoldan Rossiya kabi geosiyosiy o'zgarishlarni da'vo qiladigan, xususan, postsoviet mintaqasida o'z kuchi va mavqeyini saqlab qolish va qayta tiklash (Ukraina urushining asosida shu yotibdi) kabi ambitsiyalarga egaligi, sharqdan Xitoy kabi iqtisodiy va texnologik kuch markaziga chegaradoshligi, uning salohiyati mintaqqa uchun imkoniyatmi yoki tahdidmi masalasi ochiq qolayotganligi va Xitoyning sekin, ammo ishonch bilan mintaqada o'z pozitsiyasini kuchaytirib borayotganligi, janubdan esa, ideologik kurash va mojarolarga boy Islom dunyosi bilan chegaradoshligi, g'arbdan Kaspiy dengizi bilan o'ralganligi va Kavkazga to'g'ridan-to'g'ri quruqlik yo'llarini mavjud emasligi Markaziy Osiyo mintaqaga davlatlarini tabiiy ravishda birlashtirishga undaydi. Har tarafidan katta davlatlar bilan o'ralgan ushbu mintaqaning yosh mustaqil davlatlari faqat birgalikdagina turli tahdid va ekspansiyalardan himoyalananish, tinchligini ta'minlash va barqaror rivojlanish yo'liga o'tish imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'zaro ishonch va kollektiv xavfsizlik ushbu mintaqani taraqqiyotini ta'minlaydi. Bugungi kundagi o'tkir geosiyosiy vaziyatlar ushbu masalani dolzarblashtirish bilan birga xulosa chiqarish imkoniyatini ham taqdim qildi.

⁴ Brzezinski Zb. The Grand Chessboard: American Primacy and Its Geostrategic Imperatives. Basic Books, 1997.

